

6- LABORATORIYA ISHI

Galogenlarning suvda va organik erituvchilarda erishi

1. Probirkaga yod kristallaridan 3—4 bo‘lak solib, ustiga 1—2 *ml* suv quyib aralashtiring. Yodni suvda erishini kuzating. So‘ngra, yodning suvli eritmasiga 1—2 *ml* benzol quying. Probirkani chayqating. Tindiring. Sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni kuzating. Probirkada hosil bo‘lgan ikkita qatlam: suvli va benzol qatlamining rangiga e’tibor bering.
2. Yodning suvdagi va organik erituvchi — benzoldagi eruvchanligi haqida o‘z fikringizni bildiring.